

Kutubxonalar taraqqiyoti: kecha va bugun

Normurodova Muslima Ravshan qizi

Termiz Davlat Universiteti Milliy libos va san'at fakulteti

Kutubxona va Axborot faoliyat 1-kurs talabasi

ARTICLE INFO.

Mixxat yozuvi, pona, Iskandariya
kutubxonasi, Nashriyoti
Behbudiya, Buxoro kitob olami,
Ma'rifat bekati

Abstract

Maqolada kutubxonaning tarixi, uning rivojlanish bosqichlari haqida keltiriladi. Undan tashqari kutubxona faoliyatining bugungi kundagi rivojlanishi keltiriladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Birinchi kutubxona 8000 yil oldin paydo bo'lgan. Qadimgi Mesopotamiya aholisi loydan yasalgan yupqa lavhalarga "pona" deb nomlangan ingichka tayoqchalar yordamida yozishgan. Ularning yozish usuli "mixxat yozuvi" deb nomlanadi. Lavhalar olovda toblangan va ularning eng qimmatbaholari shikastlanmasligi uchun loydan tayyorlangan maxsus qutilarga joylashtirilgan. Arxeologlar saroylarda mavzulariga qarab saralangan holda saqlangan minglab bunday lavhalarni topishgan. Birinchi kutubxonalar shu tariqa paydo bo'lgan.

Qadimgi Misr kutubxonalari ibodatxonalarda bo'lgan, ularni ruhoniylar qo'riqlashgan. Misrliklar papirusga¹ yozishgan, keyin uni tayoqcha atrofida o'rab, sandiq yoki javonlarda saqlashgan.

Eng mashhuri Iskandariyadagi (Misr) kutubxona edi. U taxminan miloddan avvalgi 300-yilda tashkil topgan. Bu kutubxonada 700 000 dan ortiq papirus o'rami saqlangan. Barcha "kitoblar" 120 mavzu bo'yicha tasniflangan va kataloglarda² bayon etilgan.

Jamoat kutubxonalari qurishni birinchi bo'lib qadimgi rimliklar o'ylab topishgan. Yuliy Sezar jamoat kutubxonalarining butun tizimini yaratishni rejalashtirgan va vafotidan keyin bunday kutubxonalar katta shuhrat qozongan. Rimning boy aholisi kambag'allar uchun maxsus kutubxonalar tashkil etishgan, shuningdek o'zlari uchun ulkan kitoblar kolleksiyasini³ to'plashgan. IV asrga kelib Rimda 28 ta jamoat kutubxonasi mavjud bo'lgan.

Bizning davrimiz boshlarida kutubxonalar cherkov va monastirlarning ajralmas qismiga aylangan. Rohiblar kitoblarni o'qib, nusxa olganlar: ko'plab kutubxonalarning faoliyati ularning sa'y-harakatlari evaziga ta'minlangan.

O'rta asrlarning oxirida katta cherkovlar qurilgan paytda odamlar ular qoshida kichik kutubxonalar tashkil qilishni boshlagan. Universitetlar ham kitob yig'ishni boshlashgan. Parij, Geydelberg va Florensiya universitetlari "zanjirband qilingan" kitob to'plamlari bilan mashhur bo'lgan. Kitob tayyorlash shunchalik qiyin bo'lganki, noxush holatlarning oldini olish uchun

ular devorlarga katta zanjirlar bilan mixlab qo'yilgan.

1400-yilga kelib Oksfordda joylashgan universitet kutubxonada kitoblarni to'plashni boshlagan. Hozirda uning Bodleyn kutubxonasi butun dunyo universitet kutubxonalari orasida eng yirigi hisoblanadi.

Biz bugungi kunda bilgan jamoat kutubxonalari atigi 100 yildan beri mavjud. XIX asrning boshlarida ingliz siyosatchilari xalqni kutubxonalarni qo'llab-quvvatlashga dav'at etgan. Nihoyat 1850-yilda ingliz parlamenti kutubxonalarni tashkil qilishga ruxsat bergan.

O'zbekiston shaharlari azaldan ilm-fan markazi sifatida mashhur bo'lib, bunda kutubxonalar katta rol o'ynagan. Ayniqsa, IX-XII asrlarda, Amir Temur va Temuriylar davrida mamlakatda ulkan kutubxonalar tashkil etildi, ilm-fan yuksaldi. Keyingi asrlar, xususan, xonliklar davrida ham mintaqadagi yirik shaharlar, xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon shaharlarida hukmdorlar saroylarida yirik kutubxonalar faoliyat yuritgan.

Sadri Ziyo ma'lumotlariga qaraganda XX asrning boshida birgina Buxoro shahrida 13 ta kutubxona, 96 ta qiroatxona bor edi. Buxoro shahridagi hukmdor saroyidagi kutubxonada xitoy, uyg'ur, pushtu, fors, arab va boshqa tillardagi qo'lyozmalar saqlangan. Kutubxonada kitobdor, mushrif, risolachi va mirzolar xizmat qilganlar. Saroy kutubxonasida amirlarning shaxsiy kolleksiyalari bilan birga 47.500 jild turli tillardagi qo'lyozma va toshbosma kitoblar saqlangan.

Buxoro shahrida eng boy shaxsiy kutubxona amirzoda Hashmatga tegishli bo'lgan. U Buxoro amiri Muzaffarning o'g'li bo'lib, o'zidan bir necha asarlar ham qoldirgan. Mamlakatda yana bir nechta yirik shaxsiy kutubxonalar bo'lgan.

XX asr boshida jadidchilik harakati rahnamolari mintaqa shaharlarida ma'rifatni keng targ'ib qilish maqsadida dastlabki ommaviy kutubxonalarga asos soldilar. Ularning shaxsiy mablag'lari va xayriyalar hisobidan tashkil qilingan ushbu kutubxonalarda jamlangan adabiyotlar mazmuni va yo'nalishi jihatidan saroy kutubxonalaridan ancha farq qilib, zamon ruhini aks ettirib turar, xalq ommasi, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega edi.

Xususan, 1908-yilda Namanganda Is'hoqjon o'g'li Ibrat tomonidan «Matbaai Is'hoqiya» nomli ilk nashriyot qoshida «Kutubxonai Is'hoqiya» nomli kutubxona tashkil etildi. Shuningdek, Buxoro shahrida ham "Yosh buxoroliklar" harakati tomonidan "Ma'rifat" kutubxonasi tashkil etiladi. "Ma'rifat" kutubxonasida mamlakatda va xorijda chiqarilgan yangi adabiyotlar, gazeta va jurnallar jamlangan edi. Kutubxonada Istanbulda chop etilgan "Hikmat", "Sirotil mustaqim", «Ta'rifi muslimin» jurnallari, Rossiyada chop etilgan "Tarjimon", "Irshod", "Vaqt" gazetalari va "Sho'ro" jurnali, Turkistonda chop etilgan jadid matbuoti namunalari jamlangan edi. 1913-yilda Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan yangi usul maktablari uchun darsliklar chop etish, mahalliy matbuotni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan «Nashriyoti Behbudiya» kutubxona tashkil etiladi. Kutubxonada zamonaviy adabiyotlar bilan bir qatorda o'sha davr matbuot namunalari, diniy, tarixiy adabiyotlar ham jamlangan edi. 1914-yilda Toshkentdagi "Turon" jamiyati qoshida ham kutubxona tashkil etiladi. 1915-yilda Qo'qon shahrida Hamza Hakimzoda tomonidan "G'ayrat" kutubxonasi tashkil etiladi.

O'sha davrlarda kutubxonalarni tashkil etishdan asosiy maqsad eng avvalo yoshlar, maktab o'qituvchilari, madrasa talabalari, ziyolilarni yangi adabiyotlar, darsliklar, matbuot bilan muntazam tanishtirib borish edi. Chunki bu adabiyotlar va gazetalarni boshqa biror joydan

topish amri mahol edi.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratib, 2017-yil 13-yanvar hamda shu yilning 13-sentyabr kuni "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi va kitobxonlikni targ'ib etish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risidagi Qaror va farmoyishlari joylarda mahalliy hokimliklar har bir shahar va tumanda kitob savdosiga ixtisoslashgan do'konlarni tashkil etish, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlik subyektlariga foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlarini tekin foydalanish uchun berilishini ta'minlash, ularning moddiy texnik bazasini shakllantirish, va eng asosiysi joylarda zamonaviy tipdagi kitob do'konlari tashkil etish ko'zda tutilgan.

Jumladan, Buxoro shahri markazida zamonaviy kitob do'koni faoliyati joylardagi sektor binosida kutubxonalar va tuman markazlarida "Ma'rifat bekati" tashkil etildi. Birgina "Buxoro kitob olami" do'konida har kuni minglab buxorolik yoshlar qatnab, kitob mutolaa qilishi yoki kitob sotib olishi mumkin.

Shuningdek, 2019-yil 19-martda yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida "5 muhim tashabbus" dasturida ham aynan yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish tashabbusi ilgari surilgan edi. Bu boradagi ishlar samaradorligi oshirish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bir qator tanlovlar, ijodiy kechalar, aksiyalar o'tkazildi. Birgina kitobxonlik yo'nalishida joylarda "Bolalarga ma'rifat ulashib" aksiyasi hamda "Bolalarga kitob ulashing" tadbirlari davomida mahalla kutubxonasiga va faol yoshlariga badiiy adabiyotlar jamlanmasi taqdim etildi.

XULOSA qilib aytganda Bu boradagi ishlar albatta bir kun kelib o'z samarasini beradi albatta. Zotan, Prezidentimiz, "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi". – Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, – deb ta'kidlaydilar.

T a v s i y a e t i l a d i g a n a d a b i y o t l a r :

1. Korshunov O.P. Bibliografovedeniye: osnovo' teorii i metodologii: uchebnik / O.P.Korshunov, T.F.Lixovid, T.A.Novojenova; pod red. O.P.Korshunova.- Moskva: Izd-vo FAIR, 2009.- 335 s.: il., fot., tabl.- (Spetsialno'y izdatelskiy proyekt dlya bibliotek).
2. Bepalova E.K. Bibliografovedeniye: nauchnaya i pedagogicheskaya praktika // Bibliogr.- 2003.- № 4.- S. 16-34.
3. Bibliograficheskoye issledovaniya // Spravochnik bibliografa.- 3-ye, pererab. i dop. izd.- Sankt-Peterburg, 2005.- S. 568-583.
4. Olenev S.M. Bibliografovedeniye: k voprosu o statute // Bibliogr.- 2002.- № 6.- S. 3-6.
5. Sokolov A.V. Bibliograficheskaya teoriya i bibliograficheskaya praktika // Spravochnik bibliografa.- 3-ye, pererab. i dop. izd.- Sankt-Peterburg, 2005.- S. 14-24.
6. Sokolov A.V. Teoriya bibliografii v labirinte konsepsii // Mir bibliogr.- 2009.- № 3.- S. 19-25.
7. Fokeyev V.A. Bibliografovedeniye: opredeleniye, zadachi, obyekt, predmetnaya oblast, struktura // Mir bibliogr.- 2002.- № 6.- S. 7-9.